

Hozirda Urganch Davlat Universitetida jinsiy va jismoniy tajovuz, inson huquqlarini tahqirlash, haqoratlash, inson huquqlarini poymol qilinadigan har qanday holatlarga juda katta e'tibor qaratmoqda va kerakli choralar ko'rmoqda. Universitet xodimlariga va talabalarga yetarlicha ma'lumotlar berilmoqda va o'z-o'zini himoya qilish huquqlarini mutaxassislar tomonidan tushuntirilmoqda. Bugungi kungacha Universitetda xodimlar yoki chetdagi fuqarolar tomonidan hech qanday tajovuzlar bo'lmagan va buni oldini olish maqsadida yetarlicha choralar ko'rilgan. Xotin qizlar bo'limi va psixologlar talabalar bilan suhbat olib borib ularning muammolarini o'rganib, ularga to'g'ri maslahatlar bermoqda.

Agar Universitetda shu hol ro'y berilsa jabrlanuvchi, ya'ni tajovuzga uchragan fuqaroni himoya qilishga va tajovuzni sodir etgan fuqaro qonun oldida javob berishini ta'minlaydi. Shu bilan birga jabrlanuvchiga har tomonlama yordam beriladi va uning sha'ni himoya qilinadi.

O'zbekiston xotin-qizlarni himoya qilish to'g'risida qonunlarni joriy qilgan.



4-modda. Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchining huquqlari

Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

-o'ziga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etilganligi yoki ularni sodir etish tahdidi to'g'risidagi ariza bilan tegishli vakolatli organlarga hamda tashkilotlarga yoxud sudga murojaat etish;

-maxsus markazlarda, shuningdek bepul telefon liniyasi orqali tekin huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish;

-ichki ishlar organlariga himoya orderi berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa, ularni bu haqda xabardor qilish;

-sodir etilgan tazyiq va zo'rvonlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplanishi hamda ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etish.

-tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchi yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash hamda ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etganda davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.